



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

DARSLIKLARDA BERILGAN DOSTONLARNI O'RGANISHNING TAHLIL USULLARI

Nurboev Shirinbek

Jizzax davlat pedagogika universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya.

Mazkur maqolada badiiy asarlarning didaktik (o'quv) tahlili nazariy-metodik jihatdan yoritilib, uni amalga oshirish usullari hamda ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan. Taniqli metodist olim Q. Yo'ldoshevning ilmiy qarashlariga tayangan holda didaktik tahlilning mohiyati, maqsadi va estetik-pedagogik ahamiyati ochib berilgan. Ilmiy manbalar asosida matn asosidagi, obrazlar asosidagi va muammoli o'quv tahlili kabi usullar mazmuniy jihatdan tavsiflanib, ularning o'quvchilar yosh xususiyatlari va intellektual imkoniyatlariga muvofiq qo'llanishi asoslangan. Maqolada didaktik tahlil jarayonida o'quvchilarda adabiy obrazlarni tirik inson sifatida qabul qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish hamda o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, 8-sinf "Adabiyot" darsligida o'rin olgan Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Kuntug'mish" dostoni misolida didaktik tahlil usullarini amaliyotda qo'llash yo'llari ko'rsatib berilgan. Muallif dostonni o'rganish jarayonida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorlikdagi faoliyati, muammoli savol va topshiriqlar orqali tahlil olib borish samaradorligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kalit so'zlar: darslik, o'quv dasturi, doston, omil, Ergash shoir, baxshi, savol-topshiriq, tahlil, qadriyat, syujet.

МЕТОДЫ АНАЛИЗА ПРИ ИЗУЧЕНИИ ДАСТАНОВ, ПРЕДСТАВЛЕННЫХ В УЧЕБНИКАХ

Нурбоев Ширинбек

преподаватель, Джизакский государственный педагогический университет

Аннотация

В статье с теоретико-методических позиций раскрываются вопросы дидактического (учебного) анализа художественных произведений, характеризуются способы его реализации и возможности применения в образовательном процессе. Опираясь на научные взгляды известного методиста К. Йулдошева, автор выявляет сущность, цели и эстетико-педагогическую значимость дидактического анализа. На основе научных источников содержательно описываются такие методы, как текстоцентрированный анализ, анализ, ориентированный на художественные образы, а также проблемно-ориентированный учебный анализ; обосновывается их применение с учётом возрастных особенностей и интеллектуальных возможностей учащихся. Особое внимание уделяется формированию у школьников восприятия литературных персонажей как «живых» людей, развитию духовно-нравственных качеств и учебно-познавательной компетентности. Кроме того, на примере дастана Эргаша Джуманбулбул оглы «Кунтугмиш», включённого в учебник «Литература» для 8 класса, показаны пути практического применения методов дидактического анализа. Автор научно аргументирует эффективность анализа, организуемого посредством сотрудничества учителя и ученика, а также использования проблемных вопросов и заданий.

Ключевые слова: учебник, учебная программа, дастан, фактор, Эргаш шоир, башши, вопрос-задание, анализ, ценность, сюжет.

ANALYTICAL METHODS FOR STUDYING EPICS (DASTANS) PRESENTED IN TEXTBOOKS

Nurboev Shirinbek
Lecturer, Jizzakh State Pedagogical University

Abstract

This article presents a theoretical and methodological overview of the didactic (instructional) analysis of literary works, describing practical ways to implement it and its potential applications in the teaching–learning process. Drawing on the scholarly views of the well-known methodologist Q. Yuldoshev, the study clarifies the essence, objectives, and aesthetic–pedagogical significance of didactic analysis. Based on academic sources, the paper characterizes such approaches as text-based analysis, character-centered analysis, and problem-based instructional analysis, and substantiates their use in accordance with learners’ age characteristics and intellectual capacities. Particular attention is paid to encouraging students to perceive literary characters as “living” persons, fostering moral and spiritual qualities, and developing learning and cognitive competence. In addition, using Ergash Jumanbulbul o‘g‘li’s dastan *Kuntug‘mish* included in the Grade 8 “Literature” textbook as an example, the article demonstrates ways of applying didactic analytical methods in classroom practice. The author argues that analytical work becomes more effective when it is organized through teacher–student collaboration and guided by problem-based questions and tasks.

Keywords: textbook, curriculum, dastan (epic), factor, Ergash shoir, bakhshi, question-task, analysis, value, plot.

Kirish. Bugungi kunda umumta’lim maktablarida adabiyot fanini o‘qitish jarayonida badiiy asarlarni mazmunan to‘g‘ri anglatish, ular orqali o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlar, estetik tafakkur va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifalarni samarali amalga oshirish esa badiiy asarlarning didaktik (o‘quv) tahliliga ilmiy-metodik asosda yondashishni taqozo etadi. Chunki badiiy asarni faqat syujet yoki voqealar ketma-ketligi asosida tushuntirish o‘quvchilarning adabiy-estetik dunyoqarashini chuqur rivojlantirishga yetarli emas.

Adabiyot ta’limi metodikasida badiiy asar tahlilining turli usullari mavjud bo‘lib, ular orasida didaktik tahlil alohida ahamiyat kasb etadi. Didaktik tahlil orqali o‘quvchilar asardagi badiiy mantiq, obrazlar tizimi, yetakchi g‘oyalar hamda hayotiy masalalarni chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayonda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi, tashkil etuvchi shaxs sifatida ishtirok etsa, o‘quvchi tahlilning faol sub’ektiga aylanadi. Natijada ta’lim jarayonida hamkorlik, muhokama va mulohaza asosidagi o‘quv muhiti shakllanadi.

Mazkur maqolada badiiy asarlarning didaktik tahlili nazariy jihatdan yoritilib, uning asosiy usullari, o‘ziga xos xususiyatlari va ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, 8-sinf “Adabiyot” darsligida o‘rin olgan Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining “Kuntug‘mish” dostoni misolida didaktik tahlil usullarini amaliyotga tatbiq etish yo‘llari ko‘rsatib berilib, mazkur yondashuvning o‘quvchilar bilish faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy-metodik nuqtai nazardan asoslanadi.

Badiiy asarlarning didaktik tahlili, qanday xususiyatlarga ega va qanday usullar orqali amalga oshiriladi? Ushbu nazariy savolning yechimini topish uchun ilmiy manbalarga murojaat qilamiz. Taniqli metodist olim Q.Yo‘ldoshev quyidagilarni ta’kidlaydi: “O‘quv (didaktik) tahlili jamoat shaklida oshirilib badiiy asarning hozirgi hayotiy va badiiy mantig‘i va hamda estetik o‘ziga xosligini anglash orqali o‘quvchilarda ezgu ma’naviy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan estetik – pedagog faoliyatidir”. Boshqa ilmiy manbalarda didaktik

tahlil quyidagi usullar orqali amalga oshirilishi qayd etilgan:

1. Matn asosidagi (tekstual) tahlil;
2. Obrazlar asosidagi tahlil;
3. Muammoli o'quv tahlili.

“Adabiyot” darsliklaridagi badiiy asarlarning o'quv didaktik tahlili o'quv mashg'ulotida bilim oluvchilarning yosh xususiyatlari, intellektual imkoniyatlariga qarab amalga oshiriladi. Didaktik tahlilning ta'kidlangan har bir turining o'ziga xos mezonlari va xususiyatlari mavjud. Masalan, Matn asosidagi (tekstual) tahlilda eng avvalo, muhokamaga qo'yilgan asar matnining strukturasi (qurilish tarkibi), matn mantig'i, yetakchi g'oyalar, asosiy ma'no va badiiy jozibadorlik tahlili ustuvorlik qiladi, matnning estetik mohiyati ikkinchi rejaga tushib qoladi. Badiiy asarning obrazlar asosidagi tahlilida ta'lim beruvchi (o'qituvchi) va ta'lim oluvchi (o'quvchi)larning asosiy e'tibori muhokamadagi asarning obraz (timsol)lariga, ularning xatti – harakatlari, ichki his – tuyg'ulari, maqsadi va o'ylariga qaratiladi. Asar matnining badiiy jozibasi obrazlar tasnifiga e'tiborni qaratish va tahlil qilish, ular ruhiyatini ochish va eng muhimi, o'quv – bilish kompetentlikni rivojlantirishda ko'zga tashlanadi. Bu usulda tahlilda o'qituvchi yo'nalish beradi, o'quvchi ta'lim oluvchi sifatida faol ishtirok etadilar. Badiiy asar didaktik tahlilining uchinchisi – muammoli o'quv tahlilining mazmun – mohiyatiga esa oldingilardan butunlay farqlanadi. Unda ta'lim beruvchi (o'qituvchi) yetakchilik qiladi: badiiy asar matnidani kelib chiqib, badiiy yoki biror bir hayotiy muammo qo'yadi, savol – topshiriqlarni o'quvchilarga beradi, ularni qo'yilgan muammoning yechimini topishga o'quvchilar diqqati yo'naltiriladi, so'ng muhokamani umumlashtiradi.

Didaktik (o'quv) tahlilda o'quvchilar adabiy timsollarni o'z taqdiri va o'ziga xos tabiatiga ega tirik kishilar tarzida qabul qilishlariga erishish maqsadga muvofiqdir. Shundagina, bu timsollar tuygan tuyg'ular, ularning shodlig – u qayg'ulari tarbiyalanuvchilarga ham “yuqadi”, ya'ni o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ayni zamonda, ularning tarbiyalanishi va rivojlanishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi⁽¹⁾.

Badiiy asarlar didaktik tahlili mobaynida timsollarning ijobiy va salbiy kabi bir – biriga zid guruhlariga ajratilishiga yo'l qo'ymaslik, har bir badiiy timsolni o'zi qarama – qarshi tabiatli kishilar nuqtai nazaridan to'g'ri baholashga erishish lozimligi bugungi metodika ilmida alohida ahamiyat kasb etadi⁽²⁾. Iqtibos sifatida berilgan malohazalardan kelib chiqadigan xulosa shuki, badiiy asar tahlilida o'qituvchi eng avvalo, o'quvchi – shogirtlariga atrofdagi odamlarni yaxshi yoki yomonga ajratish mumkin emasligini, hayotdagi har bir kishi tabiatida ijobiy va salbiy xarakter – xususiyatlar mavjudligini qayta – qayta ta'kidlagan holda muhokama qilinayotgan har bir asar timsollari misolida tushuntirib, ular ongiga singdirib borishlari zarur. Aytilgan mulohazalarga yana qo'shimcha qilib ta'kidlamoqchimizki, har bir badiiy asar tahlilida o'quvchilar ustozlari nazarda tutgan yetakchi fikrlarni o'zlashtirib olish bilan birga, uni inson sifatida hayajonlantirgan haqiqatlar, asarda sodir bo'lgan xilma – hil voqea-hodisalarni tuyishlari, kitobxon sifatida badiiy obrazga nisbatan munosabatlari eng muhim omillardan biri sanaladi. Didaktik tahlil davomida o'quvchilarda muayyan fikrning paydo bo'lishi, timsollarga biror bir munosabat uyg'otishga, o'qituvchi nazarda tutgan adabiy dalillarga mos kelishi – kelmasligidan qat'iy nazar, o'z qarashlarini belgilab olishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu ma'noda “Adabiyot” darsligidagi har bir asarning didaktik (o'quv) tahlilida o'qituvchi yuqorida ta'kidlaganimiz matn yoki obraz asosidagi tahlilimi, yoki bo'lmasa, muammoli o'quv tahlilimi, baribir ular tayanib mashg'ulotni olib borsagina, ikkala tomon (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi) ko'zlangan maqsadga erishiladi, natijada yakunlangan mashg'ulotda samaradorlik ustuvorlik qiladi.

8-sinf “Adabiyot” darsligidan o'rin olgan Ergash Jumanbulbul o'g'lining “Kuntug'mish” dostonini didaktik (o'quv) tahlili usullaridan foydalanib o'rganishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Mazkur dostonni o'rganish uchun dasturda 4 soat vaqt ajratilgan.

Dostonni didaktik tahlil usullaridan foydalangan holda o'rganish maqsadida

o'qituvchi tomonidan ancha ilgari muddatda – o'quv yilining boshida yoki choraklikning boshlanishidayoq o'quvchilariga “Kuntug'mish” dostonini to'lig'icha o'qib chiqing, o'zingiz ma'qul bo'lgan matnlarni konspektlashtirib oling. Badiiy obrazlar faoliyatiga taalluqli nutqlarni “eslab qoling, ularning ba'zilarini yodlab oling !” degan savol va topshiriqni bermog'i lozim. Berilgan vazafaning bajarilishini qat'iy nazoratga olgan o'qituvchi internet sahifalariga murojaat qilishlarini undagi doston bilan bog'liq fikr – mulohazalar, maqolalar va monagrafik tadqiqotlardan samarali foydalanishlari zarurligini aytib, tegishli metodik tavsiyalarni bermog'i lozim.

Albatta, o'quvchilar berilgan vazifani bajarishlari uchun anchagina vaqt talab etiladi, dastlab doston matnini topib o'qib chiqish, undagi voqea – hodisalar tafsilotlari, badiiy obrazlar faoliyati, ularning maqsadi va xatti – harakatlar dostonidagi asosiy va yetakchi g'oyalar, asarning tili va boshqa masalalar haqida muayyan ma'lumotlarni bilib, ularni o'zlashtirib olishlari zarur. Shundan so'nggina asar tahliliga bag'ishlangan muhokamada faol qatnashishlari uchun dostonning didaktik tahlilini amalga oshirsa bo'ladi. Bu jarayonda o'qituvchi bir qator savol va topshiriqlarga tayanib ish ko'radi, o'quvchilar esa tegishli javoblarni berishadi, oxir oqibat qizg'in muhokama orqali ko'zlangan maqsadga erishiladi.

O'quvchilar o'z javoblarida doston matni, darslikda berilgan nazariy ma'lumot, doston haqidagi maqola, o'zi izlab topgan qo'shimcha adabiyotlar va internet materiallari asosida to'plagan ma'lumotlarga bevosita tayangan holda muayyan fikr – mulohazalarini aytadilar. Biri – ikkinchisining fikrlariga munosabat bildiradilar, uchinchi ularning fikrlarini to'ldiradilar, aytilmagan va qolib ketgan jihatlarni qayd qiladilar. Bu jarayonda o'qituvchining yordamchi savollari asosida o'zlarining doston haqidagi tasavvurlarini boyitadilar. Masalan, dostonning kuylovchilari haqida fikr aytilganda o'qituvchining tomonidan to'ldirilgan “bu doston Ergash Jumanbulbul o'g'li, Nurman Abduvov o'g'li, Islom shoir Nazar o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Egamberdi Ollomurod o'g'li kabi baxshilardan yozib olingan” ligi haqidagi nazariy ma'lumotlar ham o'quvchilarning baxshilar va doston variantlari to'g'risidagi ko'nikmalarini takomillashtirishga, tegishli bilimlarini boyitishga yordam beradi.

So'ngra, o'quvchilar to'plagan materiallari asosida: *“Siz o'qigan doston qanday xususiyatlarga? U dostonning qaysi turiga mansub, deb o'ylaysiz? Undagi yetakchi g'oyalar nimalardan iborat?”* tarzidagi savollarga quyidagicha javob beradilar: “Kuntug'mish” dostoni bizga yetib kelgan holda badiiy barkamol, kompozitsion pishiq, ishqiy – romantik dostonlarning eng yetug'i hisoblanadi. Unda ishq, muhabbat, vafo va oila masalalari ijtimoiy hayot hodisalari bilan mahkam bog'liq tasvirlanadi. Dostonning didaktik (o'quv) tahlilida o'qituvchi to'g'ri yo'nalish beruvchi ustoz, o'quvchilar esa muhokamaning faol a'zosi sifatida tegishli xulosalar chiqaruvchi shogird. Shu ma'noda, o'qituvchining *“doston syujetidagi asosiy ko'zga tashlanib turgan voqealar nimalardan iborat?”* degan savoliga o'quvchilarning “dostonda Buvraxonning dabdabali saroy muhiti ham, cho'ponlar qo'shxonasidagi faqirona hayot ham, katta karvon yo'lidagi savdogarlar to'dasining g'alamisliklariyu baliqfurushlik bilan kun ko'ruvchi sayyodlarning ahvoli ham, nobop qurilgan zamona zulmi bilan to'rt tomonga uloqtirib tashlangan ota – onalar va egizaklar taqdiri ham – hamma – hammasi muayyan o'tmish davri turmush tarzining real manzaralari sifatida g'oyatda tabiiy va yorqin namoyon bo'lgan”ligini ta'kidlaydilar. Bosh hakam sifatidagi o'qituvchi shogirdlarining javoblarini eshitib, natijalari asosli ekanligini inobatga olib, ulardagi o'quv – bilish kompetentligini yanada rivojlantirish yo'lini tutgani maqsadga muvofiq bo'ladi.

Darslikda dostonning qisqartirib berilgan matni dasturiy talqinda ko'zlangan maqsad va qarashlar o'z ifodasini topgan. Nazariy bilimlar ham doston haqidagi maqolada berilgan. Darslikdagi doston matni bilan bog'liq 20 ta savol va topshiriqlar orqali uning to'liq didaktik tahlilini amalga oshirish mumkin. Agar bordiyu o'qituvchi mazkur dostonni o'rganishga bag'ishlangan darslarini xilma – xil tarzda ko'rinishda olib borishni niyat qilsa, bu darsni doston

tahlili oxirida muayyan savol va topshiriqlarni oʻrtaga tashlab ham, oʻquvchilarni dostonning epik qahramoni haqida boshqacharoq fikrlashga yoʻnaltiruvchi, bu bilan belgilangan maqsadga erishishning ikkinchi va boshqa savol va topshiriqdan foydalangan holda tashkil etishi ham mumkin.

Darslikdagi doston matni bilan ilk tanishuvdan soʻng barcha oʻquvchilarda “doston tush koʻrish voqeasi bilan boshlanishi haqidagi taassavurga ega boʻlishadi, yaʼni Avliyoi Qoraxonning oʻgʻli Kuntugʻmishning Zangar podshosi vazirining qizi goʻzal Xolbekani tushida koʻrib, unga oshiq boʻlib qolishi, Xolbeka ham tush koʻrib, unga koʻngil bogʻlib va oʻz suratini chizdirib, bir sandiqqa solib, daryoga oqizib yuboradi”, degan fikr ustuvorlik qiladi. “*Shundan soʻng*” dostonida yana nimalar sodir boʻladi? tarzidagi oʻquvchilarning qiziqishlarini orttiradigan muammoli masalaning yechimiga navbatdagi javobni topish talab etiladi.

Dastlab oʻquvchilarning oldiga qoʻyilgan bu muammoli masalaning yechimi tomon yoʻnaltirilib: *Daryoga oqizilgan sandiqni kim olib chiqadi? Sandiqning ichidagi suratni koʻrib qanday ahvolga tushdi? Buni qanday izohlaysiz?* singari savollar oʻrtaga tashlanadi. Bu savolga javob izlash uchun oʻquvchilarning diqqati doston matnidagi:

*Bogʻ ichinda olma – anor istaydir,
Boʻyi maxbub, mushki dildor istaydir.
Qadrdonlar, birga yurgan beklarim,
Doʻstlar-ay, koʻngil bir yor istaydir.*

Tarzdagi epik qahramon kuntugʻmishning nutqiga qaratiladi. Biladiki, Kuntugʻmish daryodan oqib kelayotgan sandiqni olib chiqib, ochib koʻradi: ichidagi surat qahramonni butunlay ishq dardiga muhtalo qiladi, dastlabki ichki tuygʻulari xosilasini oʻrtogʻlariga yetkazadi. Bundan 8-sinf oʻquvchilari qanday xulosa chiqaradilar, bu dars jarayonida maʼlum boʻladi. Lekin oʻquvchilarning oʻz fikrlarini asoslashlari maqsadga muvofiq. Har xolda, maʼlum boʻladiki, epik qahramonning tush koʻrib oshiq boʻlishi va yana mashʼuqaning suratini koʻrib, bu tuygʻuning yanada kuchayishi dostonni kompozitsion tarqoqlikka emas, balki uning emotsionalligini, ishonitirish quvvati va badiiy taʼsir kuchini oshirishga olib kelgan. Demak, “Kuntugʻmish” dostonida epik qahramonning oʻzga mamlakat goʻzaliga gʻoyibona oshiq boʻlishi motivi saqlangan holda uning shakl va mazmunida, badiiy talqinida jiddiy orginallikka erishilganligini oʻquvchilar ongiga yana bir bor singdirish maqsadga muvofiqdir.

Shundan keyin oʻquvchilarning asosiy diqqat – eʼtibori Kuntugʻmishning taqdiri haqida oʻylashga yoʻnaltiriladi. Oʻquvchilar nazarida “*u qaerga boradi, kimlar bilan uchrashadi?*” Shu oʻrinda ularning diqqati yana doston matniga qaratiladi:

*Oʻzi sardor ekan, sardor saboqli,
Ot ustiga mingan kuni oʻmoqli.
Xaloyiqqa yomon kuni kerakli,
Qarchigʻay kelbatli, burgut qaboqli,
Yigitning lochinini koʻrdim buvishim.*

Oʻquvchilar bu satrlarga tayanib ayni haqiqatni anglaydilar: Kuntugʻmishning Zangorga kirib kelishi, dorvozabon, bozorda kalava sotuvchi kampir, Xolbekaning kanizi Zamongul bilan uchrashuvi epizodlarini eslaydi. Kanizlarning Xolbekaga bazzoz qiyofasidagi nomaʼlum kishi haqida xabar berganlarida, avvalo, Kuntugʻmishning bahodirlik sifatlarini soʻzlaganligiga ishonch hosil qiladi. Oʻqituvchi oʻquvchilarini kuzatishlari, zarur oʻrinlarga toʻgʻri yoʻnalishga solishi kerak. Shu oʻrinda oʻqituvchi doston matnidagi “*Podsho nomardlik qilmasin, oʻziday podsholarga taʼna-malomat boʻlmasin. Mening shu shartim, eshitmagan, bilmagan odam yoʻq. Ayol boʻlsam ham qavmimdan qaytmayman, shohingdan qoʻrqmayman. Bizga oshiq boʻlgan boʻlsa, kelsin, nard oʻynasin utsa tegaman, utdursa podsho deb siylamayman.*” Degani mulohazaga diqqat – eʼtiborini qaratga, albatta, maqsadga muvofiq ish boʻladi. Shundan soʻng oʻqituvchi oʻquvchilari eʼtiborini nard oʻyiniga, xususan, bu oʻyin har bir qahramonning fahm – farosatini,

aql – zakovatini sinash vositasi bo‘lishligi bilan birga muhim ijtimoiy vazifani ham o‘tashiga jalb qilmog‘i, ularda muayyan tasavvur hosil qilish zarur.

Gap shundaki, nard o‘yinini puxta o‘zlashtirib olgan Xolbekaga mamlakat podshosi Buvraxon ham oshiq. Ust – ustiga sovchi qo‘yadi. Lekin qizning sharti hammaga barovar. Buvraxon esa, bunday shartni bajarishga, aql, farosat ishlatib, o‘zining Xolbekaga munosib ekanligini isbotlashga qodir emas. Shuning uchun ham u saroydagi o‘ziga mute kishilarning maslahati bilan Xolbekaning baxtini bog‘laydi, shaharga tashqaridan hech kimni kiritmaslikka, uning nomini tilga olmaslikka farmon beradi. Bu bilan sof sevgi va erkin muhabbat yo‘lini, adolat yo‘lini bog‘lagan bo‘ladi. Doston matni bilan to‘liq tanishib chiqqan har bir o‘quvchida *“Xolbekaning keyingi taqdiri nima bo‘ladi, Kuntug‘mush bilan uchrashadimi?”* Degan savollarga javob berish imkoniyati bor, albatta.

Lekin, shunday bo‘lsa-da, bu o‘rinda doston syujeti finaliga Kuntug‘mush kirib keladi. Yuqoridagi ta’kidlangan satrlardan yorqin ifodalangan epik qahramon kuch-quvvatga to‘la mard yigit. U o‘zining aql – farosati bilan nard o‘yinida ko‘plab talabgorlarni yengan mag‘rur Xolbekani mot qiladi, shu mardligi ham u bilan qovusha oladi. Ularni Buvraxon jallodlari bandi qilib, haydab ketayotganda ham o‘z yorining jallodlarga yalinmaslikni maslahat berganligi ularning sof sevgi va erkin muhabbat tanlaganligidan dalolat beradi:

*Ayo nozim, bir g‘anim bor, anglab ol,
Men so‘zlayin, zehningni qo‘y, quloq sol.
Jallodlarga elanmagin bo‘yningdan,
Gavharni ne bilsin ushalgan sopol;
Yomonning qarori bo‘lmas bir yerda,
Kishiga kasodi tegar tor yerda,
Gavharni ne bilsin ushalgan sopol,
Zarning qadrini zargar bilar har yerda.*

Kuntug‘mishning yoriga qarata aytgan ushbu mulohazalar, mardlikni, bahodirlikni tarannum etuvchi bu satrlar ijodkor xalqimizning asriy tajribalaridan kelib chiqqan o‘ziga xos pand – nasihat, o‘git ekanligini o‘quvchilar shuuriga singdirish o‘qtuvchining kasbiy faoliyatiga tegishli vazifadir. Aslida bir – biriga yaqin bir necha maqol mazmunini xalqona she’riy misralarga hassoslik bilan singdirib yuborish Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining yuksak mahoratidan dalolat beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlarning didaktik (o‘quv) tahlili adabiyot ta’limida o‘quvchilarning nafaqat adabiy bilimlarini, balki ma’naviy-axloqiy qarashlari, estetik tafakkuri va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Didaktik tahlil orqali badiiy asar matni, obrazlar tizimi va yetakchi g‘oyalar o‘zaro uyg‘unlikda o‘rganilib, o‘quvchilarda asarni chuqur anglash va unga shaxsiy munosabat bildirish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Maqolada tahlil qilingan matn asosidagi, obrazlar asosidagi hamda muammoli o‘quv tahlili usullari har biri o‘ziga xos metodik vazifani bajarishi bilan ahamiyatli ekani aniqlandi. Ushbu usullarni o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, intellektual imkoniyatlari hamda dars maqsadlaridan kelib chiqqan holda kompleks qo‘llash ta’lim samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, muammoli o‘quv tahlili o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, dalillar asosida xulosa chiqarishga va badiiy matnga tanqidiy yondashishga o‘rgatadi.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining *“Kuntug‘mish”* dostoni misolida olib borilgan didaktik tahlil shuni ko‘rsatdiki, xalq og‘zaki ijodi namunalarini mazkur usullar orqali o‘rganish o‘quvchilarda milliy ma’naviy merosga hurmat, sof muhabbat, mardlik, adolat va insonparvarlik kabi tushunchalarni chuqur anglashga xizmat qiladi. Dostondagi epik qahramonlar taqdiri va ularning ichki ruhiy olamini tahlil qilish orqali o‘quvchilar hayotda inson tabiati murakkab va ziddiyatli ekanligini anglab yetadilar.

Shu bois, adabiyot darslarida badiiy asarlarni didaktik tahlil qilishni tizimli yo'lga qo'yish, o'qituvchining yo'naltiruvchi rolini kuchaytirish hamda o'quvchilarni tahlil jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish zamonaviy adabiyot ta'limi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa ta'lim sifati va tarbiyaviy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Джамолдинова Ш. Мактаб адабий таълимида халқ оғзаки ижоди намуналарини муаммоли метод асосида ўрганиш йўллари (5-9-синфлар мисолида). Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Самарқанд-2021.
2. Болтаева А.Т. Адабиёт дарсларида бадий асар қаҳрамонларини танқидий баҳолашга ўргатиш технологиялари. педагогика...фалс.док.(PhD) дисс.-Т., 2018. □ Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008.
3. Йўлдошев Қ. Бадий асар таҳлили ва талқини масалалари. – Тошкент: Фан, 2012.
4. Қосимов Б. Адабиёт таълими назарияси ва методикаси. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт, 2006.
5. Расулов А. Бадий матн таҳлили асослари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015.
6. Каримов Н. Адабий таълимда замонавий методлар. – Тошкент: Фан ва технология, 2017.
7. Ҳамидов Ҳ. Мактаб адабиёт таълимида бадий асар таҳлили. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, 2010.
8. Сафаров О. Фольклор ва адабий жараён. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009.
9. Жуманбулбул ўғли Эргаш. Кунтуғмиш (достон). – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, турли нашрлар.